

O'ZBEKISTON TARIXI FANI PREDMETI, NAZARIY - METODOLOGIK ASOSLARI VA UNI O'RGANISH MANBALAR

Xoliqova Irodaxon Kamolbek qizi

Ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston tarixi fani predmeti, nazariy - metodologik asoslari va uni o'rganish manbalar haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: Tarixiy haqiqat, Xalq, O'zbekiston, jamiyat, Vatan.

KIRISH

"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasida: "Jamiyatimizning ma'nnaviy asoslarni mustahkamlash, madaniyat sohasini rivojlantirish, ilmiy-ijodiy tashkilotlar, muhtaram ziyojolarimiz faoliyatini qo'llab-quvvatlash ham biz uchun ustuvor yo'nalishlardan biri bo'ladi. Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g'oyat og'ir sharoitda ilm-ma'rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g'oyalarini dadil ko'tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o'rganishimiz lozim. Ularning ulug' maqsadlar yo'lidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi O'zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo'lib xizmat qilishi zarur" - deb, ta'kidlab o'tgan edi.

Tarixiy haqiqat to'la ro'yobga chiqishi, haqqoniy tarix yozilishida tarix fanining predmeti va ob'ektini to'g'ri belgilanishi o'ta muhim ahamiyatga ega. Chunki, O'zbekiston tarixi fani uchun ham boshqa barcha fanlar qatori predmet va ob'ekt masalasi asosiy masala bo'lib hisoblanadi. Zero, fan uning o'rganish predmeti va ob'ekti aniq bo'lmasa, uning oldidagi vazifa noaniq bo'lib, maqsadga erishish mushkul bo'ladi. Bunday holat o'quv jarayoni samaradorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi²⁴.

ASOSIY QISM

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishish jarayoni sobiq sovet hududidagi boshqa mamlakatlar singari murakkab siyosiy o'zgarishlar sharoitida yuz berdi. Davlat mustaqilligining e'lon qilinishi mamlakatning barcha siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tizimini tubdan o'zgartirishga yo'l ochdi.

Demokratik prinsiplarga ko'ra milliy davlatchilik va siyosiy tizimning asoslari shakllantirildi, ularda hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijsro etuvchi va sud hokimiyatlari funksiyalari va vakolatlari taqsimlandi. Respublikaning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotini erkinlashtirish bosqichma-bosqich, keskin inqilobiy larzalarsiz amalga oshirildi.

O'zbekiston tarixi, shuningdek, O'zbekistonning eng yangi tarixi jahon tarixining ajralmas bir qismi bo'lib, u bizning zamonomizdag'i global jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir. Eng yangi tarixni o'rganishning muhimligi va dolzarbligi shundaki, u mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-ma'nnaviy jihatdan barqaror rivojlanishiga

²⁴ A.Sa'dullaev va boshqalar. O'zbekiston tarixi: Davlat va jamiyat taraqqiyoti. T:Akademika 2020.

ta'sir qiluvchi voqea-xodisalarini tushunishga hamda teran idrok etishga yordam berishi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, u bizga tarixiy taraqqiyot tendensiyalarini oldindan ko'ra bilish va bashorat etish imkoniyatini beradi.

Tashqi siyosatning milliy strategiyasi ishlab chiqilib, O'zbekiston zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimiga munosib ravishda kira oldi.

O'zbekiston tanlagan mustaqil taraqqiyot yo'li xalqimizning milliy xususiyatlari, urfatlari va madaniyatini har tomonlama hisobga olgan holda, to'plangan xalqaro tajribadan ijodiy foydalanishga asoslangandir.

Birinchi bosqich: 1989 yildan 1991 yilgacha. Bu bosqich - yangi rahbarning siyosat maydonida paydo bo'lishi, milliy istiqlol g'oyasining pishib etilishi, SSSRning parchalanib ketishi negizida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish bilan bog'liq sa'y-harakatlar bilan tavsiflanadi.

Ikkinchchi bosqich: 1991 - 2000 yillar. Bu - ustuvor islohotlar va o'zgarishlardan milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish hamda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish davri. Tarixan qisqa vaqt ichida "taraqqiyotning o'zbek modeli" ni tanlab olish natijasida milliy davlat shakllanishi uchun ishonchli qonunchilik va huquqiy asos yaratildi. Davlat boshqaruvining yangi tuzilmalari yuzaga keldi, jamoat va fuqarolik institutlarining asoslari barpo etila boshlandi, bozor iqtisodiyotiga o'tish amalga oshirildi.

Uchinchi bosqich: 2001-2010 yillar. Bu bosqichda - mamlakatni faol demokratik yangilash va modernizatsiya qilish boshlandi. Bu davrning asosiy vazifasi kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga bosqichma- bosqich o'tish edi. Shu negizda siyosiy va iqtisodiy hayotning barcha jahhalarini demokratlashtirish va liberallashtirish, davlat va jamiyat qurilishi, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qiladigan, fuqarolarning siyosiy va iqtisodiy faolligini oshiradigan, fuqarolik jamiyatni asoslarini shakllantiradigan mustaqil sud tizimini mustahkamlash jarayonlari davom etdi.

To'rtinchchi bosqich (2010-2016): Bu bosqichda mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va modernizatsiya qilish jarayoni davom etdi. Ushbu bosqich davlat hokimiysi va boshqaruvini yanada demokratlashtirish, sud-huquq tizimini, axborot sohasini isloh qilish, so'z erkinligini ta'minlash, saylov qonunchiligin rivojlantirish, demokratik bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirish bo'yicha islohotlarning huquqiy asoslарini yaratish bilan tavsiflanadi.

O'zbekistonning zamonaviy tarixining beshinchi bosqichi 2017 yildan boshlandi. O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-2021 yillarda O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining yangi konsepsiysi ishlab chiqildi. Ushbu tarixiy hujjat mustaqillikni qo'lga kiritilganidan boshlab, mamlakatni demokratik yangilash va rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamlı islohotlarni rivojlantirishni aks ettiradi, unda davlat va jamiyat rivojlanishining yangi bosqichida modernizatsiyani yanada davom ettirishning strategik dasturi belgilab berilgan.

Ushbu bosqich davlat hokimiysi va boshqaruvini yanada demokratlashtirish, sud-huquq tizimini, axborot sohasini isloh qilish, so'z erkinligini ta'minlash, saylov qonunchiligin rivojlantirish, demokratik bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirish bo'yicha islohotlar uchun huquqiy asoslarni yaratishni davom ettirish bilan tavsiflanadi.

O‘zbekiston tarixini o‘rganishda moddiy va yozma manbalarning o‘rni. O‘zbekiston tarixi fani va tarixni o‘rganishda manbalarning o‘rni va ahamiyati behad katta. Shuning uchun ham ular millat va xalqning ma’naviy-madaniy merosi, bebafo madaniy-tarixiy boyligi hisoblanib, maxsus hujjatxona (arxiv)larda, kutubxonalar va muzeylarda hamda oilaviy arxivlarda juda avaylab, ehtiyyotkorlik bilan saqlanmoqda. Xalq og‘zaki ijodi orqali tillardan tillarga meros bo‘lib o‘tib kelayotgan tarixiy voqealar va hodisalar bayoni, normativ materiallar asosida bizgacha yetib kelmoqda. Binobarin, aynan tarixiy manba va yodgorliklar orqaligina tarixni yoritish – tarixiy ma’lumotlarni, dalillarni olish orqali ularni qiyosiy solishtirish va tarixiy umumlashtirish, bo‘lib o‘tgan tarixiy-madaniy jarayonlar hamda voqeahodisalarining sabablari va oqibatlarini, mazmun-mohiyatini tahlil qilish, tahlillar asosida esa ilmiy asoslangan xulosalar berish imkoniyatlari kengayadi²⁵. Tarixiy manbalar davr nuqtai nazaridan qadimiy va joriy (kundalik) ahamiyatga ega bo‘ladi. Shuningdek, ular o‘z mazmuni va mohiyatiga ko‘ra birlamchi va ikkilamchi ahamiyat maqomiga ham egadirlar. Birlamchi manbara tarixiy hujjatlarning asl nusxasi kiradi. Ikkilamchi manba deb esa, birlamchi manbalarning e’lon qilingan nusxalari, maqola va kitob holatiga keltirilganlariga aytildi. Tarixiy manbalarga qadimdan qolgan barcha narsalar, ya’ni, insoniyat qo‘li va aql-zakovoti bilan yaratilgan barcha moddiy madaniyat buyumlari va ashyolar, inshootlar, yozma yodgorliklar, urf-odatlar, an’analalar, tillar kabilalar kiradi²⁶.

O‘zbekiston tarixini o‘rganishning manbalarini shartli ravishda quyidagi oltita guruhgaga bo‘linadi:

1. Yozma manbalar - epigrafik yodgorliklar, ya’ni, tosh, metall, suyak va sopolga bitilgan bitiklar, «Avesto», mixxab yozuvlar, qadimgi va o‘rta asrlar mualliflarining xabarlar, graffitlar, ya’ni, qo‘l bilan binolar, metall buyumlar, idishlarda qoldirilgan izlar, papirus, pergament va qog‘ozlardagi qo‘lyozmalar, chop etilgan materiallar.
2. Moddiy yoki arxeologik manbalar - arxeologik tadqiqotlar natijasida o‘rganiladigan mehnat va jangovar qurollar, hunarmandchilik buyumlari, idishlar, uyro‘zg‘or buyumlari, kiyimlar, chorvachilik anjomlari, tangalar, san’at buyumlari, me’morchilik inshootlari, uy-joy qoldiqlari, mudofaa inshootlari kabilardir. Moddiy manbalar yozuvsiz zamonlardagi tariximizni tiklash uchun ulkan ahamiyat kasb etadi.
3. Etnografik ma’lumotlar - eng qadimgi davrdan boshlab so‘nggi o‘rta asrlarga qadar odamlarning yashash tarzi va turmushi, urf-odatlari va an’analari, bayramlar va diniy e’tiqodlar, xo‘jalik yuritish udumlari, ma’lum kabilalar, elatlari va etnik guruhlarga xos bo‘lgan an’analalar haqida qimmatli ma’lumotlar beradi.
4. Lingistik ma’lumotlar – qadimgi tillarning yozma, badiiy va og‘zaki nutqda aks etishi, turli xalqlar tili va lahjasidagi o‘xshashliklarning tarixiy ildizlari haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu ma’lumotlar xalqlar va elatlarning etnik kelib chiqishi hamda mashg‘ulotlari, migratsion jarayonlar, diniy e’tiqodlar, madaniyat, turmush tarzini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.
5. Kinofotohujjatlar – nisbatan yangi, voqeahodisalar va ma’lumi shaxslar bo‘yicha ilgari surilgan fikrlarning tasdig‘i hisoblanadi.

²⁵ Q.Usmonov va boshqa. O‘zbekiston tarixi fanidan ma’ruzalar matni. T: Moliya 2021.

²⁶ Q.Usmonov va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. O’quv qo’llanma. T:Meros, 2022

6. Arxiv materiallari - XIX asrning o'rtalaridan boshlab bugunga qadar ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy jarayonlarni o'rganishda markaziy va joriy arixlarda saqlanayotgan ma'lumotlar juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Haqqoniylar, xolis tarixiy bilimga ega bo`lish oson emas. Negaki, biz o`rganayotgan tarixiy voqealarni, jarayonlarni bevosita kuzata olmaymiz, ular bizdan ancha ilgari bo`lib o'tgan, ularni qaytarib bo`lmaydi. Bundan ilgari bo`lib o`tgan tarixiy voqealarni bilib bo`lmaydi, degan xulosa chiqmaydi, albatta. Tarixiy voqealar, xalqlar hayoti nom-nishonsiz yo`q bqlib ketmaydi, ulardan tarixiy manbalar guvoh bo`lib qoladi. Tarixiy manbalar ikkiga - moddiy va yozma manbalarga bo`linadi.

Qadimgi odamlardan bizgacha etib kelgan mehnat qurollari, idish-tovoqlar, tanga pullar, harbiy qurol-yaroqlar, uy-joylar, qal'alar, shaharlar, qabrlar, rasmlar va boshqa narsalar moddiy tarixiy manbalar deb ataladi. Vatanimiz hududida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida topilgan moddiy topilmalar, ularning tahliliy xulosalarini odamlar hayotini bilishga imkoniyat yaratadi. Qadimgi davrlardayoq odamlar qz fikrlarini yozma bayon etish uchun yozuv belgilari ixtiro qilganlar. Savodxon kishilar qzlarini yashab turgan yoki borib kqrgan mamlakatlari haqida, ko'rgan-kechirganlarini daraxtlarning pqstlog'iga, toshga, teriga, keyinchalik qog'ozga yozib qoldirganlar. Xalqlarning hayoti, yuz bergan voqealar haqida yozilgan kitoblar mavjud. Yer va qimmatbaho narsalarini in'om qilish, meros qoldirish, sotib olish hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Podshoh va hokimlarning yozma shakldagi qonunlari va farmonlari saqlanib qolgan. Bular yozma manbaalar deyiladi.

XULOSA

Xulosa shuki, manbalar tarixiy jarayon va voqeliklarning o'zida real aks ettirgan bo`lib, tarixiylikning in'ikosi bo`lmog'i kerak. Mana shunda ularning tarixiy ahamiyati, tarixiy ekanligi yuqori bo`lib, tarixiy haqiqatning yuzaga chiqishiga yaqindan yordam beradi. Tarix fani ijtimoiy taraqqiyot va o'tmishta oid har xil voqeahodisalarining izchil rivojlanishi, ularning qachon, qayerda, qanday holatda yuz berganligi, insoniyatning paydo bo`lishi va uning tadrijiy-evolyutsion rivojlanish jarayoni va boshqalarni o'rganadi. Shuningdek, O'zbekiston tarixi umumjahoninsoniyat tarixinining ajralmas qismi hisoblanib, u olamshumul voqeliklarga juda boy. O'zbekiston tarixi fani mana shu voqeliklarni boshidan kechirgan qadim va yaqin ajdoddarimizning hayoti qanday bo`lganligini, jahon tarixi taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini xolisona va haqqoniy o'rganadi. Ta'kidlash lozimki, tarixiy, milliy madaniy, axloqiy va diniy qadriyatlarni o'rganish, tiklash va yangi asoslarda rivojlantirish - yoshlar, ta'lim va tarbiya tizimidagi talabalarning dunyoqarashida milliy g'urur hamda o'zlikni anglash, ular ongida vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalarini yanada mustahkamlash bugungi davr talabidir. Aynan shuning uchun ham Oliy ta'lim tizimida «O'zbekiston tarixi» fanini har tomonlama hamda chuqur o'qitish maqsadida yangi avlod o'quv dasturlari, o'quv qo'llanmalar va darsliklar yaratilib, bu boradagi ilmiy tadqiqotlar natijalari o'quv jarayoniga joriy etilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Murtazaeva R.X. O'zbekiston tarixi. Darslik. Toshkent.2023.
2. К.Усмонов, М.Содиков, С.Бурхонова.Ўзбекистон тарихи. Дарслик. Т., 2008 й.
3. Yoriquulov, A., & Sa'dullayeva , M. (2023). TARIXNI O'RGANISHDA

MANBALARNING O'RNI. *Interpretation and Researches*, 1(1). извлечено от
<https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/670>

4. Alimova D.A. va b. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). -T.s "Sharq", 2000.
5. Alimova D. A., Golovanov A.A. O'zbekiston mustabid sovet tuzumi davrida: siyosiy va mafkuraviy tazyiq oqibatlari.-T., "O'zbekiston", 2000.